

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

XOMIDOV SOXIBMALIK OLIMOVICH

FARMATSEVTIKA SANOATINING BARQAROR IQTISODIY
RIVOJLANISHINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASH
METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.06 - Ekonometrika va statistika

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc)
экономических наук**

**Contents of dissertation abstract of the doctor (DSc)
in economic sciences**

Xomidov Soxibmalik Olimovich

Farmatsevtika sanoatining barqaror iqtisodiy rivojlanishini modellashtirish
va prognozlash metodologiyasini takomillashtirish..... 3

Хомидов Сохибмалик Олимович

Совершенствование методологии моделирования и прогнозирования
устойчивого экономического развития фармацевтической
промышленности..... 31

Khomidov Sokhibmalik Olimovich

Improving the methodology of modeling and forecasting the sustainable
economic development of the pharmaceutical industry..... 61

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 66

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

XOMIDOV SOXIBMALIK OLIMOVICH

FARMATSEVTIKA SANOATINING BARQAROR IQTISODIY
RIVOJLANISHINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASH
METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.06 - Ekonometrika va statistika

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.DSc/Iqt231 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	Maxmudov Nosir Maxmudovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Berkinov Bazarbay Berkinovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor Xatamov Ochildi Qurbonovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor Sauxanov Janibek Kaziyevich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Farg'ona davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2021.I.16.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "___" _____ kuni soat___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239 01 49; faks: (99871) 232 69 92; e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ - raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239 01 49; faks: (99871) 232 69 92.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" _____ da tarqatildi.
(2025-yil "___" _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

B.E. Mamaraximov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.n., professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yuzaga kelayotgan turli ekologik, epidemiologik, texnogen va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarning kuchayib borayotganligi inson salomatligiga jiddiy xavf tug‘dirib, turli kasalliklarni keltirib chiqarmoqda. Buning natijasida har yili sifatli tibbiy xizmatlar va yuqori samaraga ega dori vositalariga bo‘lgan talab dunyo miqyosida muttasil ravishda ortib bormoqda. Yuqorida qayd etilgan omillar sababli jahon farmatsevtika bozori va sanoatida turli o‘zgarish va tendensiyalar kuzatilmoqda. Tahlillarga ko‘ra, jahon farmatsevtika bozori so‘nggi yillarda sezilarli o‘shishni boshdan kechirdi. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, “2023-yilga kelib, global farmatsevtika bozorining umumiy qiymati taxminan 1,6 trillion AQSh dollarini tashkil etdi. Bu esa 2022-yilga nisbatan 100 milliard dollardan ortiq ekanligini namoyon etdi”¹. Bundan ko‘rinadiki, jahonda farmatsevtika sanoatining barqaror iqtisodiy rivojlanishini modellashtirish va prognozlash metodologiyasini takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega.

Jahonda global integratsiya jarayonlarining kuchayishi sharoitida farmatsevtika sanoatining barqaror iqtisodiy rivojlanishini modellashtirish va prognozlashga oid ko‘plab izlanishlar amalga oshirilmoqda. Tarmoqda raqamli va sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish, farmatsevtik ishlab chiqarishning innovatsion ekotizimlarini shakllantirish, soha resurslaridan samarali foydalanishni optimallashtiruvchi ekonometrik va ko‘p mezonli modellarni ishlab chiqish, global sog‘liqni saqlash tendensiyalari asosida talab va taklif muvozanatini prognoz qilish, tarmoqning moliyaviy barqarorligi va investitsion jozibadorligini baholovchi dinamik ssenariy tahlillari olib borish, murakkab tarkibli va xavfsiz bo‘lgan dori vositalarini ishlab chiqarish, tarmoqning innovatsiya sig‘imini oshirish, ishlab chiqarishni raqamlashtirish va farmatsevtika sanoatini rivojlantirishda sun‘iy intellekt va nanotexnologiya imkoniyatlaridan samarali foydalanish, ishlab chiqarishda Pharma 4.0 konsepsiyasini faol ravishda qo‘llash kabi masalalar farmatsevtika sanoatining barqaror iqtisodiy rivojlanishini modellashtirish va prognozlash metodologiyasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham boshqa davlatlar singari farmatsevtika sanoatini rivojlantirish masalasi muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Aholining yuqori samarali dori-darmonlarga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq qondirish, ushbu sanoatning qay darajada rivojlanganligiga bevosita bog‘liqdir. Hozirda respublikamiz farmatsevtika siyosatida erkin iqtisodiy hududlar va klasterlarni tashkil etish, ilg‘or standartlarni (GMP, GDP, GPP, GSP va h.k.) tarmoqqa joriy etish, mahalliyashtirish ulushini oshirish, tarmoqdagi investitsiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlash kabi masalalar ustuvor ahamiyat kasb etib bormoqda. Bugungi kunda respublikamizda “aholini sifatli, samarali va xavfsiz farmatsevtika mahsulotlari bilan ta‘minlashni yanada yaxshilash, farmatsevtika tarmog‘iga ilg‘or ilmiy-texnika yutuqlari va innovatsiyalarni joriy etish orqali tarmoqda ishlab

¹ <https://www.statista.com/statistics/263102/pharmaceutical-market-worldwide-revenue-since-2001/> (11.03.2024).

chiqarish hajmini 3 barobarga oshirish, ichki bozorni ta'minlash darajasini natural hajmda 80 foizga yetkazish"² kabi maqsadlar belgilab olingan. Yuqorida qo'yilgan maqsadlar respublika farmatsevtika tarmog'ining rivojlanish imkoniyatlari va salohiyatini chuqur tahlil qilish, uning barqaror rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni miqdoriy tadqiq etish va shular asosida ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni talab etadi. Mazkur jihatlardan kelib chiqqan holda bu borada chuqur tadqiqotlar olib borish va buning uchun iqtisodiy-matematik usullarning imkoniyatlaridan keng va samarali foydalanish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-yanvardagi PF-20-son "Farmatsevtika sohasini tartibga solish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2023-yil 21-iyuldagi PF-111-son "Ma'muriy islohotlar doirasida investitsiyalar, sanoat va savdo sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 21-yanvardagi PF-55-son "2022–2026-yillarda respublikaning farmatsevtika tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2024-yil 10-yanvardagi PQ-14-son "Farmatsevtika tarmog'ini yanada rivojlantirish va investitsiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi³.

Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish, uning iqtisodiy o'sish, innovatsiya va aholi salomatligiga bo'lgan ta'sirlarini tadqiq etish bilan bog'liq bo'lgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari, tadqiqot institutlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Association of International Pharmaceutical

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-yanvardagi "2022–2026-yillarda respublikaning farmatsevtika tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-55-son farmoni. <https://lex.uz/docs/5834287>. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

³ Фармацевтическая промышленность и глобальное здравоохранение: факты и цифры. AIPM & IFPMA. - М.: 2012. - 191 с.; The Pharmaceutical Industry and Global Health. Facts and Figures 2021. IFPMA. Switzerland. - 102 p.; Boosting Pharmaceutical Production. 2019. UNIDO. Austria. - 11 p.; Frank R. Lichtenberg. Pharmaceutical Innovation Mortality Reduction and Economic Growth. Working Paper 6569. NBER. Cambridge. 1998. - 30 p.; Dennis Oswald et cet. The Global Economic Impact of the Pharmaceutical Industry. Berlin. 2020. - 18 p.; Mehdi Mohammadzadeh et cet. Pharmaceutical industry in export marketing: a closer look at competitiveness. International Journal of Pharmaceutical and Healthcare Marketing. 2018. - 15 p.; Yuanyuan Yu et cet. Local government policies and pharmaceutical clusters in China. Journal of Science & Technology Policy Management Vol. 5 No. 1, 2014 pp. 41-58.; Barouni M., Ghaderi H., Banouei A. Pharmaceutical Industry and Trade Liberalization Using Computable General Equilibrium Model. Iranian J. Publ. Health, Vol. 41, No.12, Dec 2012, pp.66-75.; The Role of Pharmaceuticals in Public Health. SPH Symposium Papers - Number 3. Boston University School of Public Health. September 15, 2016. PP. 6-7.

Manufacturers (Rossiya), International Federation of Pharmaceutical Manufacturers & Associations (Shveytsariya), United Nations Industrial Development Organization (Avstriya), National Bureau of Economic Research (AQSh), WifOR independent economic research institute (Germaniya), Pharmacoecconomy and Medical-Pharma Management Research Center (Eron), State Key Laboratory of Quality Research in Chinese Medicine (Xitoy), Tehran University of Medical Sciences (Eron), Szent István University (Vengriya), Boston University School of Public Health (AQSh), Sankt-Peterburg davlat kimyo-farmatsevtika akademiyasi (Rossiya), Toshkent vaksina va zardoblar ilmiy-tadqiqot instituti, O'zbekiston kimyo-farmatsevtika ilmiy-tadqiqot instituti, Sharq tabobati ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent farmatsevtika instituti, Farmatsevtika texnik universiteti, Farmatsevtika ta'limi va tadqiqotlar instituti (O'zbekiston) kabi ilmiy-tadqiqot markazlari tomonidan olib borilmoqda.

Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy natijalarga erishilgan: jahon farmatsevtika sanoati va bozoridagi so'nggi tendensiyalar baholangan, undagi *R&D* ishlanmalarning global sog'liqni saqlash tizimiga bo'lgan ta'sirlari aniqlangan (Association of International Pharmaceutical Manufacturers; International Federation of Pharmaceutical Manufacturers & Associations), farmatsevtika sanoati ishlab chiqarishini rag'batlantirish yo'llari asoslab berilgan, rivojlangan mamlakatlarda farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish va uning sog'liqni saqlash tizimidagi o'rni baholangan (United Nations Industrial Development Organization), farmatsevtik innovatsiyalar, o'lim darajasi va iqtisodiy o'sish o'rtasida empirik munosabatlar o'rnatilgan (National Bureau of Economic Research), farmatsevtika sanoatining global iqtisodiyotga bevosita va bilvosita ta'sirlari asoslab berilgan (WifOR independent economic research institute), eksportda farmatsevtika sanoatining imkoniyatlar darajasi aniqlangan va uning raqobatbardoshlikni ta'minlashdagi o'rni baholangan (Pharmacoecconomy and Medical-Pharma Management Research Center), farmatsevtika sanoatida tadqiqotlarni rivojlantirish, jumladan, yangi dorilarni ishlab chiqarishda xarajatlar va Federal tadqiqotlarning o'rni, *R&D* sektoriga investitsiyalar qilish masalalari tahlil etilgan (Congressional Budget Office), mahalliy hukumat siyosatining farmatsevtika klasterlari tarkibiga kiruvchi sanoat korxonalariga ta'siri baholangan (State Key Laboratory of Quality Research in Chinese Medicine), Germaniya va Fransiyada demografik o'zgarishlarning farmatsevtika xarajatlariga farmako-iqtisodiy ta'siri tadqiq etilgan (BioMed Central Public Health), farmatsevtika bozorini rivojlantirishning rag'batlantirish mexanizmlari va mavjud bo'lgan to'siqlar, ularni davlat tomonidan tartibga solish masalalari tadqiq etilgan (Исследовательский Центр компании «Делойт»), dori vositalari eksportini qo'llab-quvvatlash modeli ishlab chiqilgan (Sankt-Peterburg davlat kimyo-farmatsevtika akademiyasi).

Hozirgi vaqtda dunyoning ko'plab yirik farmatsevtika kompaniyalari tomonidan murakkab tarkibli innovatsion dori vositalarini yaratish hamda ularni ommaviy ishlab chiqarish, tarmoqda nanotexnologiya, biotexnologiya va raqamli

texnologiyalarni qo'llash, Pharma 4.0 hamda sun'iy intellektning imkoniyatlaridan samarali foydalanish bo'yicha muhim tadqiqotlar olib borilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Farmatsevtika sanoatini rivojlantirish, uning iqtisodiy o'sish, tashqi savdo, sog'liqni saqlash tizimi, innovatsiya, milliy va global iqtisodiyotda tutgan o'rnini tadqiq etish masalalari hamda farmatsevtika sanoatida narx va talab shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari T.Abbot, J.Vernon, G.Muroto'g'li, M.Barouni, L.Agheli, S.Emamgholipour, P.Dutta, D.Lakdavalla, E.Urias, M.Kremer va boshqa shu kabi xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida chuqur tadqiq etilgan⁴.

MDH mamlakatlari olimlaridan Yu.Balekina, A.Lin, S.Sokolova, V.Shestakov, A.Fomin, A.Balashov, Z.Mamedyarov, I.Karachev hamda M.Tolstopyatenkolar farmatsevtika bozori muvozanatida dinamik modellar, ushbu tarmoqni rivojlanish mexanizmini shakllantirish, global farmatsevtika tarmog'ining innovatsion rivojlanishi, farma-tibbiy klasterlarni shakllantirish asosida farmatsevtika sanoatini innovatsion rivojlanish masalalarini tadqiq etganlar⁵.

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish va prognozlash hamda farmatsevtika sanoatining turli jihatlarini rivojlantirish masalalari o'zbekistonlik iqtisodchi olimlarning ham ilmiy qiziqishlari predmeti bo'lib kelmoqda. Jumladan, S.S.Gulyamov, B.B.Berkinov, N.M.Maxmudov, R.X.Alimov, T.D.Doschanov, B.T.Salimov, A.M.Abduvohidov, B.K.G'ayibnazarov, S.K.Salayev, I.S.Abdullayev, O.Q.Xatamov, J.K.Sauxanov, J.Ahmedov, B.Bobojonov, F.Abdiyeva, A.Yunusxodjayev, G'.Boboxujayev, M.Kariyeva, Sh.Atamuradov, M.Xakimova va boshqalarning ilmiy izlanishlarida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish, prognozlash, optimallashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish masalalari, mahalliy farmatsevtika mahsulotlariga bo'lgan talabni o'rganish,

⁴ Thomas A. Abbott and John A. Vernon. The Cost of US Pharmaceutical Price Reductions: A Financial Simulation Model of R&D Reductions. NBER Working Paper No. 11114 February 2005. P. 1-35.; Muratoglu G. Does Pharmaceutical Industry Boost Economic Growth? A Competitiveness-Related Approach. Journal of Yasar University, 2017, 12/48, 296-314.; Barouni M., Ghaderi H., Banouei A. Pharmaceutical Industry and Trade Liberalization Using Computable General Equilibrium Model. Iranian J Publ Health, Vol. 41, No.12, Dec 2012, pp.66-75.; Sara Emamgholipour, Lotfali Agheli, (2019) "Determining the structure of pharmaceutical industry in Iran", International Journal of Pharmaceutical and Healthcare Marketing, IJPHM-06-2017-0030.; Bikram Jit Singh Mann, Prabhjot Dutta, (2013) "An empirical analysis of resources in the Indian pharmaceutical industry", International Journal of Emerging Markets, Vol. 8 Issue: 1, pp.82-96.; Darius N. Lakdawalla. Economics of the Pharmaceutical Industry. Journal of Economic Literature 2018, 56(2), 397-449.; Eduardo Urias, "The Contribution of the Pharmaceutical Industry to the Health Status of the Developing World" in Multinational Enterprises and Sustainable Development. Published online: 19 Sep 2017; 41-67.; Michael Kremer. Pharmaceuticals and the Developing World. Journal of Economic Perspectives-Volume 16, Number 4-Fall 2002-Pages 67-90.

⁵ Yulia Balykina Modern Approaches to Drugs Research and Development Using Mathematical Modeling. Cloud of Science. 2014. Vol. 1. No. 4. pp. 566-578.; Лин А. А., Соколова С. В., Шестаков В. Н. Фармацевтический рынок: сектор научных исследований и разработок. Проблемы современной экономики, N 3 (55), 2015. Стр: 327 - 332.; Фомин А.В. Динамическая модель равновесия фармацевтического рынка. Дисс. на соискание ученой степени кандидата экономических наук. - М.: 2013.; Балашов А.И. Формирование механизма устойчивого развития фармацевтической отрасли. Дисс. на соискание ученой степени доктора экономических наук. - СПб.: 2012.; Мамедьяров З.А. Инновационное развитие глобальной фармацевтической отрасли. . Дисс. на соискание ученой степени кандидата экономических наук. - М.: 2018.; Толстопятенко М.А. "Инновационное развитие фармацевтической промышленности на основе формирования фарма-медицинских кластеров". Автореф. дисс. на соискание ученой степени кандидата экономических наук. - М.: 2009.

tarmoq korxonalarining raqobatdoshligini oshirish yo'llari, O'zbekiston farmatsevtika tovarlari bozorida marketing tadqiqotlari hamda sanoat muammolari tadqiq etilgan⁶.

Ammo, yuqoridagi tadqiqotlarda respublika farmatsevtika sanoatining barqaror iqtisodiy rivojlanishini modellashtirish va prognozlash masalasi alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan. Ikkinchi tomondan, respublika farmatsevtika sanoatining hozirgi rivojlanish holati va xususiyatlari bevosita inobatga olinmagan. Bu esa tanlangan tadqiqot mavzusining dolzarbligi, maqsadi hamda unda yechiladigan masalalar doirasini belgilashga keng imkoniyatlar yaratib beradi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq OT-F1-154-son "Milliy iqtisodiyot tarkibiy o'zgarishining yalpi ichki mahsulot o'sishiga ta'sirini baholash metodologiyasini takomillashtirish" mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi respublika farmatsevtika sanoatining iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini modellashtirish va prognozlash metodologiyasini takomillashtirish hamda shu asosida uning barqaror rivojlanishini ta'minlash yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

farmatsevtika sanoatini barqaror iqtisodiy rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish va modellashtirishning metodologik asoslarini yoritish;

republika farmatsevtika sanoatining asosiy iqtisodiy rivojlanish jarayonlari va tendensiyalarini modellashtirish;

farmatsevtika sanoatining barqaror iqtisodiy rivojlanishini tadqiq etishda iqtisodiy-matematik modellarning tatbiqlarini kengaytirish;

farmatsevtika sanoatini barqaror iqtisodiy rivojlantirishning iqtisodiy-

⁶ Гулямов С.С. Проблемы моделирования развития территориально-промышленных комплексов. Дисс. на соиск. учен. степ. докт. экон. наук. - М. 1974; Беркинов Б.Б. Моделирование систем ведения сельского хозяйства. - Ташкент.: Фан, 1991.; Махмудов Н.М. Моделирование производственно-экономических процессов хлопко-перерабатывающих отраслей.: Дисс. докт. экон. наук. - Т.: ТГЭУ, 1993; Досчанов Т.Д., Экономико-экологические основы производства и применения продукции химической промышленности в АПК. дисс. на. соиск. докт. экон. наук. Т.: 1990.; Салимов Б.Т. Моделирование использования и развития производственного потенциала региона. - Т.: Ўқитувчи, 1995; Салаев С.К. Кичик бизнес ривожланиш тенденцияларини моделлаштириш ва башоратлаш (Ўзбекистон Республикаси мисолида): Иқт. фан. док. дис... автореф. - Т.: ТДИУ, 2008; Абдуллаев И.С. Минтақавий иқтисодий тизимни оптимал тартибга солишинг механизмларини такомиллаштириш. иқт.фан.док. автореф. - Т.: ТДИУ. 2017. - 66 б.; Ахмедов Ж.Ж. Хорижий инвестицияларни жалб этишинг молиявий-иқтисодий самарадорлиги (Ўзбекистон фармацевтика sanoati мисолида). Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. - Т.: 2019.; Бобожонов Б.Р. Маҳаллий фармацевтика маҳсулотларига талабни ўрганишда маркетинг усулларидан фойдаланиш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. - Т.: 2023.; Abdiyeva F.B. Farmatsevtika sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Т.: 2024.; Юнусходжаев А.А. Маркетинговые исследования функционирования фармацевтических производственных предприятий Республики Узбекистан и эффективность их развития. И.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. - Т., 2010.; Бобохужаев Ғ.Н. Ўзбекистон фармацевтика товарлари бозорида маркетинг тадқиқотлари., и.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. - Т., 2007.; Кариева М.Т., Атамурадов Ш.И., Хакимова М.С. Тенденции развития и проблемы фармацевтической промышленности в Узбекистане. Science, Research, Development №17/8. pp. 122-125.

matematik modellarini ishlab chiqish;

ishlab chiqilgan iqtisodiy-matematik modellardan va modellashtirish natijalaridan foydalanish hamda sanoat ishlab chiqarish hajmini prognozlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasining farmatsevtika tarmog‘i tanlangan.

Tadqiqotning predmetini farmatsevtika sanoatining barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlash jarayonlarida vujudga keluvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy bilishning dialektik yondashuv, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, kompleks yondashuv hamda iqtisodiy-matematik usullari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

farmatsevtika sanoatining yaxlit iqtisodiy tizim sifatidagi “muhit” va “obyekt” tizimiga kiruvchi unsurlarini tarmoqdagi uzoq muddatli barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlashdagi o‘rni asoslab berilgan va shu asosida farmatsevtika bozorida talab hajmi shakllanishini prognozlash takomillashtirilgan;

foyda, baho, soliq tushumlari, yangi ish o‘rinlarini yaratish, dori vositalarining farmatsevtika bozorida tezda namoyon bo‘lishi kabi parametrlarni o‘z ichiga olgan to‘liq mamlakatimizda ishlab chiqariluvchi, to‘liq import qilinuvchi hamda yig‘ma ishlab chiqarishdan iborat bo‘lgan farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning muqobil variantlarini asoslash bo‘yicha uslubiy yondashuv taklif etilgan;

respublika hududlarining farmatsevtika sanoati rivojlanishini ifodalovchi tanlab olingan ko‘rsatkichlari asosida hududlarda mazkur tarmoq rivojlanishini ifodalovchi yig‘ma indeks ishlab chiqilgan va ushbu indeks asosida hududlarni “quyi”, “o‘rta” va “yuqori” toifadagi tabaqalashgan guruhlariga ajratish bo‘yicha turli o‘lchov birliklariga ega bo‘lgan ko‘rsatkichlarini tasniflashning ko‘p o‘lchovli statistik algoritmi takomillashtirilgan;

farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalarini faoliyatiga sifat nazorati bo‘yicha xalqaro qoida va talablarni o‘z ichiga olgan GMP-standartini (“Zarur ishlab chiqarish amaliyoti”) joriy etish ularning eksport hajmi o‘zgarishiga bo‘lgan ta‘sir samaradorligini eksperimental baholash imkoniyatini beruvchi uslubiyot taklif etilgan;

O‘zbekiston Respublikasi asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish hajmining 2030-yilgacha bo‘lgan prognoz variantlari va maqsadli prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

respublika farmatsevtika sanoatining rivojlanish bosqichlari aniqlangan va asosiy tendensiyalar baholangan;

asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish tuzilmasidagi tarkibiy siljishlar baholangan;

asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish hajmiga ta‘sir etuvchi omillar ekonometrik modellashtirilgan;

farmatsevtika mahsulotlari eksporti va valyuta almashuv kursi dinamikasi

o'rtasida hamda farmatsevtika sanoati ishlab chiqarishi va YaIM o'rtasidagi o'zaro miqdoriy munosabatlar ekonometrik tadqiq etilgan;

respublikada asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish hajmining prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi foydalanilgan axborot bazasining ishonchliligi va ularning rasmiy manbalardan olinganligi bilan, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning ishonchliligi davlatning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi bilan hamda tegishli xulosalarni mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etishga qabul qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada yoritilgan miqdoriy usullardan ushbu sanoatning rivojlanish tendensiyasini tahlil qilish va uning o'zgarishlarini prognozlashda, olingan natijalardan tarmoqni uzoq muddatli rivojlantirish istiqbollarini belgilash va bu borada muhim qarorlar qabul qilishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati olingan tahliliy ma'lumot va natijalardan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi amaliy faoliyatida foydalanilganligi, amaliyotga taqdim etilgan asosiy hisob-kitob natijalari tarmoqning turli rivojlanish variantlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Respublika farmatsevtika sanoatining iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini modellashtirish va prognozlash metodologiyasini takomillashtirish hamda shu asosida uning barqaror rivojlanishini ta'minlash yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

farmatsevtika sanoatining yaxlit iqtisodiy tizim sifatidagi "muhit" va "obyekt" tizimiga kiruvchi unsurlarini tarmoqdagi uzoq muddatli barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashdagi o'rni asoslab berilgan va shu asosida farmatsevtika bozorida talab hajmi shakllanishini prognozlash bo'yicha taklifdan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi amaliy faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 24-fevraldagi 04/26-1-2-4058-son ma'lumotnomasi). Modellashtirish natijalari asosida olingan ilmiy xulosalar va asoslantirilgan iqtisodiy takliflar tarmoqni istiqbolda rivojlantirish va uning faoliyatini tahlil qilishda foydalanish imkonini bergan;

foйда, baho, soliq tushumlari, yangi ish o'rinlarini yaratish, dori vositalarining farmatsevtika bozorida tezda namoyon bo'lishi kabi parametrlarni o'z ichiga olgan to'liq mamlakatimizda ishlab chiqariluvchi, to'liq import qilinuvchi hamda yig'ma ishlab chiqarishdan iborat bo'lgan farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning muqobil variantlarini asoslash bo'yicha uslubiy yondashuvdan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan iqtisodiy o'sishni tahlil qilish va prognozlashtirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 24-fevraldagi 04/26-1-2-4058-son ma'lumotnomasi). Ushbu uslubiy yondashuv mazkur tarmoq iqtisodiyotiga xos bo'lgan strategik qarorlarni ishlab chiqish imkonini bergan;

respublika hududlarining farmatsevtika sanoati rivojlanishini ifodalovchi tanlab olingan ko'rsatkichlari asosida hududlarda mazkur tarmoq rivojlanishini ifodalovchi yig'ma indeks ishlab chiqilgan va ushbu indeks asosida hududlarni "quyi", "o'rta" va "yuqori" toifadagi tabaqalashgan guruhlariga ajratish bo'yicha turli o'lchov birliklariga ega bo'lgan ko'rsatkichlarini tasniflashning ko'p o'lchovli statistik algoritmidan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi amaliy faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 24-fevraldagi 04/26-1-2-4058-son ma'lumotnomasi). Ushbu algoritm farmatsevtikaga ixtisoslashgan iqtisodiy zonalarining rivojlanish samaradorligini baholash uchun moslashuvchan vosita sifatida foydalanish imkonini bergan;

farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalarini faoliyatiga sifat nazorati bo'yicha xalqaro qoida va talablarni o'z ichiga olgan GMP-standartini ("Zarur ishlab chiqarish amaliyoti") joriy etish ularning eksport hajmi o'zgarishiga bo'lgan ta'sir samaradorligini eksperimental baholash imkoniyatini beruvchi uslubiyot O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan farmatsevtika sohasida yangi siyosatni joriy qilishning samaradorligini istiqbolda baholashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 24-fevraldagi 04/26-1-2-4058-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning qabul qilinishi farmatsevtika sohasida yangi siyosatni joriy qilish samaradorligini baholash imkonini bergan;

O'zbekiston Respublikasi asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish hajmining 2030-yilgacha ishlab chiqilgan prognoz variantlari va maqsadli prognoz parametrlari O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan o'sish ko'rsatkichlarini prognozlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 24-fevraldagi 04/26-1-2-4058-son ma'lumotnomasi). Ushbu parametrlar farmatsevtika sanoatining iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarini prognozlashda foydalanish uchun qabul qilingan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqotining asosiy g'oyasi va natijalari ma'ruzalar shaklida 4 ta xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida bayon etilgan va ma'qullangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, Oliy attestatsiya komissiyasining tavsiya etgan ilmiy jurnallarida jami 15 ta, shundan 3 ta nufuzli xorijiy jurnallarda hamda 12 ta mahalliy jurnallarda ilmiy maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 230 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, mamlakat fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlarning sharhi, ilmiy ishning yangiligi va amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, aprobatsiyasi, e‘lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining birinchi bobi “**Farmatsevtika sanoatining barqaror iqtisodiy rivojlanishini modellashtirishning ilmiy-nazariy asoslari**” deb nomlanib, bunda farmatsevtika sanoatining milliy iqtisodiyotda tutgan o‘rni, rivojlanish bosqichlari va barqaror rivojlantirish shartlari, “barqaror iqtisodiy rivojlanish”ni modellashtirish hamda modellashtirishga tizimli yondashuv kabi masalalar bayon etilgan.

Farmatsevtika sanoati – kasalliklarning oldini olish, davolash, davolash uchun mo‘ljallangan dori vositalarini tadqiq qilish va ishlab chiqish, ommaviy ishlab chiqarish hamda tarqatish bilan shug‘ullanuvchi sanoat tarmog‘idir⁷.

Ta‘rifdan ko‘rinadiki, farmatsevtika sanoati faqatgina ishlab chiqarish faoliyatidan iborat bo‘lmay, balki u dori vositalari ustida ilmiy tadqiqot olib boruvchi muassasalar, ishlab chiqarish korxonalari hamda uni tarqatish bilan shug‘ullanadigan tarmoqlardan tashkil topadi. Bu esa, farmatsevtika sanoatining rivojlanishi tizimli xarakterga ega ekanligini ko‘rsatib beradi.

Farmatsevtika sanoatining barqaror iqtisodiy rivojlanishi bu – tarmoq rivojlanishiga xos bo‘lgan asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarni miqdor jihatdan o‘shirish, sifat jihatdan (asosan, aholi jon boshiga) takomillashuvidir. Bunda muayyan vaqt oralig‘ida uning rivojlanishini ifoda etuvchi asosiy ko‘rsatkichlar miqdor va sifat jihatdan muntazam o‘shirish tendensiyasini namoyon etadi.

Barqaror rivojlanish murakkab tushuncha bo‘lganligi bois uni bitta yoki ikkita ko‘rsatkich bilan ifodalab bo‘lmaydi. Muallif, tarmoqning barqaror iqtisodiy rivojlanishini baholash uchun quyidagi ko‘rsatkichlarni taklif etadi:

farmatsevtika sanoati ishlab chiqarish hajmining YaIM va umumiy sanoatdagi ulushining ortib borishi;

mamlakat umumiy eksport hajmida tarmoq eksport mahsulotlari ulushining o‘shirishi va eksport hajmining importga nisbatan yuqoriligi;

mahalliy ishlab chiqarish hisobidan ichki farmatsevtika bozorining ta‘minlanganlik darajasi;

ishlab chiqarishning hududiy konsentratsiyalashuvi va uning mutanosib rivojlanishi;

aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan tarmoq mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining ortib borishi;

eng asosiy dori vositalari bilan aholining ta‘minlanganlik darajasining o‘shirishi, tarmoqdagi ijobiy tarkibiy o‘zgarishlar va hokazo.

Muallif fikricha, tarmoqning barqaror rivojlanishiga nisbatan uch xil yondashish

⁷ www.krugosvet.ru/enc/nauka_i_tehnika/tehnologiya_i_promyshlennost/FARMATSEVTICHESKAYA_PRO_MISHLENNOST.html#part-1 (Murojaat sanasi: 12.03.2024).

maqsadga muvofiq bo'lib, bular quyidagilardan iborat:

I. Iqtisodiy tizim sifatida farmatsevtika sanoatining barqaror rivojlanishi.

II. Ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tarmoqning barqaror rivojlanishi.

III. Epidemiologik, ekologik va tibbiy omillarning ta'sirlari nuqtayi nazaridan tarmoqning barqaror rivojlanishi.

Tadqiqot ishida farmatsevtika sanoatining barqaror rivojlanishiga ta'sir etuvchi birinchi guruh omillar nazariy jihatdan iqtisodiy tizim sifatida, ikkinchi va uchinchi guruh omillari esa, amaliy jihatdan ekonometrik modellar yordamida hamda uchinchi guruh omillar esa talab hajmi shakllanishining konseptual sxemasida o'z aksini topgan.

Tadqiqot ishida ikkinchi guruh omillaridan amaliy jihatdan yettita omil tadqiq etilgan bo'lib, tanlangan omillar o'rtasida multikollinearlik muammosi yuzaga kelganligi sababli ekonometrik modellashtirishning so'nggi bosqichiga borib faqatgina ikkita omil, ya'ni: aholi soni va eksport hajmi statistik jihatdan ahamiyatli bo'lib chiqdi.

Farmatsevtika sanoatining barqaror iqtisodiy rivojlanishiga **omillarning ta'sir etish qonuniyati** shundan iboratki, bunda ular dinamikasining joriy holati (qiymati) o'tgan davrlardagi (lag) vaqt qatorlari holatiga (qiymatlariga) bog'liq bo'ladi. Buni *i* vaqtlar qatoriga ega ADL modeli ko'rinishida quyidagicha yozish mumkin⁸:

$$y_t^i = a_0^i + \sum_{j=1}^k a_{1j}^i \cdot y_{t-1}^j + \sum_{j=1}^k a_{2j}^i \cdot y_{t-2}^j + \dots + \sum_{j=1}^k a_{pj}^i \cdot y_{t-p}^j + \varepsilon_t^i \quad (1)$$

Bunda: $y_t = (y_t^1, y_t^2, \dots, y_t^k)$ vaqtli qator vektori bo'lib, (1) tenglikni yaxlit holatda bitta tenglama orqali quyidagicha ifodalash mumkin:

$$y_t = a_0 + A_1 y_{t-1} + A_2 y_{t-2} + \dots + A_p y_{t-p} + \varepsilon_t = a_0 + \sum_{m=1}^p A_m y_{t-m} + \varepsilon_t \quad (2)$$

Bunda vektor avtoregressiya tenglamasining matritsa shakli quyidagicha bo'ladi:


$$\begin{pmatrix} y_{1,t} \\ y_{2,t} \\ \vdots \\ y_{k,t} \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} a_{0,1} \\ a_{0,2} \\ \vdots \\ a_{0,k} \end{pmatrix} + \begin{pmatrix} a_{1,1}^1 & a_{1,2}^1 & \dots & a_{1,k}^1 \\ a_{2,1}^1 & a_{2,2}^1 & \dots & a_{2,k}^1 \\ \vdots & \vdots & \dots & \vdots \\ a_{k,1}^1 & a_{k,2}^1 & \dots & a_{k,k}^1 \end{pmatrix} \begin{pmatrix} y_{1,t-1} \\ y_{2,t-1} \\ \vdots \\ y_{k,t-1} \end{pmatrix} + \dots + \begin{pmatrix} a_{1,1}^p & a_{1,2}^p & \dots & a_{1,k}^p \\ a_{2,1}^p & a_{2,2}^p & \dots & a_{2,k}^p \\ \vdots & \vdots & \dots & \vdots \\ a_{k,1}^p & a_{k,2}^p & \dots & a_{k,k}^p \end{pmatrix} \begin{pmatrix} y_{1,t-p} \\ y_{2,t-p} \\ \vdots \\ y_{k,t-p} \end{pmatrix} + \begin{pmatrix} \varepsilon_{1,t} \\ \varepsilon_{2,t} \\ \vdots \\ \varepsilon_{k,t} \end{pmatrix} \quad (3)$$

Keltirilgan (3) tenglama farmatsevtika sanoatining rivojlanishiga ta'sir etuvchi bir nechta omil o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlikni muayyan vaqt oralig'idagi o'zgarishini ifodalaydi. Mazkur modelda ishtirok etayotgan tenglamalarning har biri o'zida avtoregressiya va oldingi qiymatlarni taqsimlash jarayonini ham qamrab oladi.

Tadqiqotda farmatsevtika sanoatining barqaror iqtisodiy rivojlanishini ko'p jihatli va ko'p omilli jarayon ekanligini inobatga olgan holda uni tadqiq etish va modellashtirishda tizimli yondashuv usuli taklif etildi (1-rasm).

Farmatsevtika sanoati barqaror iqtisodiy rivojlanishining eng muhim xususiyati bu – uning tizimli xarakterga ega ekanligidir.

⁸ Курбонбекова М.Т. Ўзбекистонда мажбурий захира инструментининг бозор фойз ставкаларига таъсири. Том 8. № 1 (2022): Moliya va bank ishi. Б. 3-4.



1-rasm. Farmatsevtika sanoatining barqaror iqtisodiy rivojlanishini tadqiq etishning metodologik asoslari⁹

⁹ Muallif tomonidan tuzilgan.

“Tizimli iqtisodiyot” nazariyasiga asoslangan holda farmatsevtika sanoatining rivojlanishida kechadigan barcha jarayonlarni quyidagi tizimlar va ularning unsurlari orqali tushuntirish mumkin¹⁰:

1. Obyekt (δ_i): farmatsevtika sanoati, ishlab chiqarish omillari va infratuzilmasi, resurslar, korxonalar, klaster, hudud, mamlakat va boshqalar.

2. Jarayon (β_i): ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol, innovatsiyaning tarqalishi va boshqaruv jarayonlari, kadr bo'yicha ta'lim jarayonlari va sifati, investitsiyalash jarayonlari, inflyatsiya, o'sish va pasayish jarayonlari va boshqalar.

3. Loyiha (γ_i): kelgusi rejalar, kompleks dasturlar, maqsadlar, tadbirlar, qo'shma va strategik yirik loyihalar, yirik qurilishlar, tarmoq va korxonalarni qayta tashkil etishlar, korxonalarni yaratish, yangi mahsulot ishlab chiqarish loyihalari, binolarni qurish va boshqalar.

4. Muhit (α_i): rivojlanishga xizmat qiluvchi investitsiya, biznes va ishbilarmonlik muhitlari, savdo tizimlari, tashqi savdo shartlari, aloqa va kommunikatsiya vositalari, normativ-huquqiy baza va qonunchilik, institutlar, narx muhiti va boshqalar.

Qaralayotgan tizimlar o'rtasidagi umumiy iqtisodiy va umumtizim funksiyalarini quyidagicha taqsimlash mumkin (1-jadval).

1-jadval

Tizimlar o'rtasida umumiy iqtisodiy va umumtizimiy funksiyalarning taqsimlanishi¹¹

Tizimlar	Iqtisodiy funksiyalarning taqsimlanishi		Tizimdagi funksiyalarining taqsimlanishi	
	Asosiy funksiya	Qo'shimcha funksiya	Asosiy funksiya	Qo'shimcha funksiya
Muhit (α)	Iste'mol	Taqsimot	Barqarorlashtirish	Birxillashtirish
Jarayon (β)	Taqsimot	Almashuv	Birxillashtirish	Tabaqalashtirish
Loyiha (γ)	Ayirboshlash	Ishlab chiqarish	Tabaqalashtirish	Diversifikatsiyalash
Obyekt (δ)	Ishlab chiqarish	Iste'mol	Diversifikatsiyalash	Barqarorlashtirish

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi “**Farmatsevtika sanoatining barqaror iqtisodiy rivojlanishini modellashtirish usul va uslublari**” deb nomlanib, bunda farmatsevtika sanoatining barqaror iqtisodiy rivojlanishini modellashtirishga tizimli yondashuv, farmatsevtika sanoatining rivojlanish jarayonlarini tadqiq etishda katta sonlar qonuni va statistik qonuniyatlikning namoyon bo'lishi hamda farmatsevtika sanoati ishlab chiqarishini rivojlantirishning muqobil yo'llari va mezonlarini tanlash uslublari bayon etilgan.

Farmatsevtika sanoatining iqtisodiy “tizim (sys) sifatida faoliyat samaradorligi resurslar (R_{sys}) va qobiliyatlar (Q_{sys}) hisobiga quyidagi ishlab

¹⁰ Клейнер Г.Б. Системная экономика как платформа развития современной экономической теории. «Вопросы экономики». 2013. № 6. 22 - с.

¹¹ Клейнер Г.Б. Экономика. Моделирование. Математика. Избранные труды/ Г.Б.Клейнер; Российская академия наук, Центральный экономико-математич. ин-т. - М.: ЦЭМИ РАН. С. 2016. 83-84.

chiqarish funksiyasini tashkil etadi¹²:

$$Y_{sys} = f_{sys}(R_{sys}, Q_{sys}), \quad (4)$$

bunda: Y_{sys} - tizim (sys) tomonidan yaratilgan mazkur turdagi tovarlarning (farovonlikning) umumiy miqdori; R_{sys} - tizim resurslari hajmining umumiy ko'rsatkichi; Q_{sys} - tizimning qobiliyati darajasining umumlashtirilgan ko'rsatkichi; f_{sys} - mazkur tizimning ishlab chiqarish funksiyasi; Y, R, Q - parametrlar miqdoriy shkalada o'lchanadi.

Bunda $f(R, Q)$ funksiya uzluksiz va birinchi darajali bir jinsli funksiya bo'lib, ushbu talablarga javob beradigan funksiya – ko'p rejimli ishlab chiqarish funksiyasining bitta varianti hisoblanadi va u Leontyev hamda CES funksiyalarining kompozitsiyasi ko'rinishida bo'ladi:

$$f(R, Q) = (\min(aR, bQ)^u + \min(cR, dQ)^u)^{1/u}, \quad (5)$$

bunda: $a > 0, b > 0, c > 0, d > 0, u \neq 0$ - parametrlar.

Funksiyani quyidagicha yozish mumkin:

$$f(R, Q) = \begin{cases} (b^u + d^u)^{1/u} R, & \text{agar } 0 < R/Q < a/b < c/d; \\ ((aR)^u + (dQ)^u)^{1/u}, & \text{agar } a/b < R/Q < c/d; \\ (a^u + c^u)^{1/u} Q, & \text{agar } c/k < R/Q \end{cases} \quad (6)$$

Qayta parametrlashtirish orqali biz $f(R, Q)$ funksiyani tahlilga qulay shaklda quyidagicha yozishimiz ham mumkin:

$$f(R, Q) = k(v(\min(aR, bQ))^u + w(\min(cR, dQ))^u)^{1/u}, \quad (7)$$

Bu yerda: $a, b, c, d, k, v, w > 0, u \neq 0$ - parametrlar, $v + w = 1$.

Qaralayotgan iqtisodiy tizimning ishlash mexanizmi quyidagi ko'p rejimli ishlab chiqarish funksiyasining variantlaridan birini o'zida ifoda etadi:

$$y = (a_{11}x_1^{a_0} + a_{21}x_2^{a_0})^{a_1} \dots (a_{1h}x_1^{a_0} + a_{2h}x_2^{a_0})^{a_h} \quad (8)$$

Demak, yuqoridagi modellar, iqtisodiy tizim sifatida farmatsevtika sanoatining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashda qanday resurs va qaysi tizimning kuchiga tayanish mumkinligini ko'rsatib beradi. Farmatsevtika sanoatining barqaror iqtisodiy rivojlanishiga tizimli yondashuv tarmoq faoliyatini tizimli tashkil etish va tarmoq mahsulotiga bo'lgan talab hajmi shakllanishini prognozlashning quyidagi konseptual tizimini ishlab chiqish imkoniyatini beradi (2-rasm).

Mamlakatimiz farmatsevtika bozori to'liq o'zimizda ishlab chiqariluvchi (ishlab chiqarishning to'liq sikli), qisman ishlab chiqariluvchi (yig'ma ishlab chiqarish) hamda to'liq import qilinuvchi mahsulotlar bilan xarakterlanadi. Mazkur bozorda ishlab chiqaruvchi (tadbirkorlar), iste'molchi (aholi va kasalxonalar) va davlat quyidagi manfaatlarni namoyon etadi:

I. Foyda mezon bilan ishlab chiqaruvchilar (tadbirkorlar).

II. Ikkita mezon bilan iste'molchilar: quyi narxlar va zaruriy farmatsevtik mahsulotlarning bozorda imkon qadar tezroq paydo bo'lishi.

III. Uchta mezon bilan davlat: soliq tushumlari, yangi ish o'rinlarini yaratish, quyi mahsulot narxlari.

Bunda keltirilgan mezonlar quyidagilar bilan tavsiflanadi:


¹² Клейнер Г.Б. Системная экономика и системно-ориентированное моделирование. Экономика и математические методы. 2013, том 49, № 4, с. 71-93.

1. Foyda: import qilishda foyda mavjud emas, yig‘ma ishlab chiqarishda foyda yiliga 17 mlrd. ishlab chiqarishning to‘liq siklida esa 35 mlrd.so‘m.

2. Narxlar: yig‘ma ishlab chiqarishda narxlar juda past, importda narxlar biroz yuqori, to‘liq ishlab chiqarishda ahamiyatli darajada.

3. Zaruriy farmatsevtik mahsulotlarning bozorda imkon qadar tezroq paydo bo‘lishi: importda 1-2 oy, yig‘ma ishlab chiqarishda 1-1,5 yil, to‘liq ishlab chiqarishda 2-3 yil.

4. Soliqlar: importda yiliga 10 mln. so‘m, yig‘ma ishlab chiqarishda yiliga 20 mln. so‘m, to‘liq ishlab chiqarishda yiliga 27 mln. so‘m.



2-rasm. Farmatsevtik mahsulotlarga bo‘lgan talab hajmi shakllanishi va uni prognozlashning konseptual tizimi¹³

¹³ Muallif tomonidan tuzilgan.

5. Ish o‘rinlarini yaratish bo‘yicha: importda ish o‘rinlari yaratilmaydi, yig‘ma ishlab chiqarishda yiliga 1500 ish o‘rni, to‘liq ishlab chiqarishda 3800 ta ish o‘rni.

Rivojlanishning keltirilgan 3 variantidan (import qilish, qisman ishlab chiqarish, to‘liq ishlab chiqarish) qay biri farmatsevtika sanoati uchun eng muhim ekanligini aniqlaymiz. Bunda rivojlanishga eng ko‘p iste‘molchilar va nisbatan kamroq davlat hamda ishlab chiqaruvchilar ta‘sir ko‘rsatadilar.

Dastlab qo‘yilgan masalani quyidagicha tizimlashtiramiz:

nolinchi daraja – maqsad (M_0 - tanlov natijasi – eng optimal variant); **birinchi daraja** – manfaatdor tomonlar (iste‘molchi, ishlab chiqaruvchi va davlat - S); **ikkinchi daraja** – tomonlarning mezonlari (foyda, baho, muddat, soliq, ish o‘rni - M); **uchinchi daraja** – farmatsevtika sanoatini rivojlantirishning muqobil variantlari (V).

M_0 mezonga ko‘ra, tomonlar ustuvorliklarining muhimligini global baholash ekspertlar tomonidan belgilanadi: $Vektor^{(0)} = (0.25; 0.5; 0.25)$ - “maqsad - manfaatdor tomonlar” vektori. Shuningdek, “tomonlar - mezonlar” $M^{(1)}$ ustun matritsalar va manfaatdor tomonlar (S) nuqtayi nazaridan mezonlarni baholash (M_{ij}) ekspert yo‘li bilan aniqlanadi (2-jadval).

2-jadval

Manfaatdor tomonlarni baholash, $M^{(1)}$ matritsa¹⁴

Mezonlar	Tomonlar			Mezonlarning global bahosi, $G^{(1)}$
	S_1 - tarmoq	S_2 - iste‘molchi	S_3 - davlat	
M_1 - foyda	1	0	0	0.25
M_2 - baho	0	0.75	0.1	0.40
M_3 - muddat	0	0.25	0	0.125
M_4 - soliq tushumlari	0	0	0.6	0.15
M_5 - bo‘sh ish o‘rinlarini yaratish	0	0	0.3	0.075
Tomonlarning muhimligini baholash, $G^{(1)}$	0.25	0.5	0.25	

Bunda mezonlarni global baholash $G^{(1)}$ ustuni quyidagicha topiladi:

$$G^{(1)} = M^{(1)}G^{(0)} \quad (9)$$

Ekspertlar sonining zaruriy miqdorini aniqlashda quyidagi tengsizlikdan foydalanamiz¹⁵:

$$m \leq \frac{3}{2 \cdot Q_{max}} \cdot \sum_{i=1}^{m^*} Q_i \quad (10)$$

bunda: m^* - nomzodlarning umumiy soni, Q_{max} - kompetentlik koeffitsiyentining maksimal qiymati, Q_i - i - nchi ekspertning kompetentligi.

Ekspertlar fikri yaqinligining o‘lchovi sifatida quyidagi formuladan

¹⁴ Muallif hisob-kitoblari.

¹⁵ Дюйзен Е.Ю. Метод экспертного оценивания: руководство к действию. Креативная экономика, 2014, № 2(86). - 30 с.

foydalanish mumkin¹⁶:

$$S_{ij} = \frac{2 \cdot m_{ij}}{n_i \log_2 \left(1 + \frac{n_j}{n_i}\right) + n_j \log_2 \left(1 + \frac{n_i}{n_j}\right)} \quad (11)$$

Bunda S_{ij} - i - nchi va j - nchi ekspertlar fikrlarining bir-biriga mos kelishining o'ldhovi, m_{ij} - i - nchi va j - nchi ekspertlar tomonidan bir xilda baholangan omillar soni, n_i va n_j - mos ravishda i - nchi va j - nchi ekspertlar tomonidan baholangan omillar soni.

(M) mezonlarga nisbatan muqobil baholar (G), "mezonlar - muqobillar" $M^{(2)}$ ustun matritsalarini ekspert yo'li bilan aniqlanadi. Bunda muqobil variantlarni global baholash $G^{(2)}$ ustuni quyidagicha topiladi:

$$G^{(2)} = M^{(2)}G^{(1)} = M^{(2)}M^{(1)}G^{(0)} \quad (12)$$

3-jadval

Farmatsevtika sanoati rivojlanishining muqobil variantlarini baholash, $G^{(2)}$ matritsa¹⁷

Muqobil variantlar	Mezonlar					Muqobil variantlarni global baholash, $G^{(2)}$
	M_1	M_2	M_3	M_4	M_5	
V_1 - import	0.04	0.35	0.78	0.05	0.05	0.26
V_2 - yig'ma	0.22	0.60	0.15	0.33	0.35	0.39
V_3 - to'liq ishlab chiqarish	0.74	0.05	0.07	0.62	0.6	0.35
Mezonlarni global baholash, $G^{(1)}$	0.25	0.40	0.125	0.15	0.075	

Farmatsevtika sanoati rivojlanishining muqobil variantlarini baholash natijalariga ko'ra, $V_2 > V_3 \geq V_1$ bo'lgani uchun, qo'yilgan shartlar bo'yicha eng yaxshi rivojlanish varianti bu – yig'ma ishlab chiqarishdan iborat bo'lgan rivojlanish yo'lidir (ikkinchi variant).

Dissertatsiya ishining uchinchi bobi "**Respublika farmatsevtika sanoatining asosiy iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini modellashtirish**" deb nomlanib, bunda respublika farmatsevtika sanoati rivojlanishidagi asosiy dinamika va tarkibiy o'zgarishlar, farmatsevtika sanoatining barqaror iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy ichki va tashqi omillar hamda ishlab chiqarish funksiyasi yordamida farmatsevtika sanoatida texnik taraqqiyot omili kabi jarayonlar modellashtirilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2023-yilda asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish hajmining YaIMdagi ulushi 0,34 foizni, umumiy sanoatdagi ulushi 0,6 foizni, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi esa, 0,7 foizni tashkil etdi. Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish tuzilmasida eng quyi bo'lgan ulushni immunitet uchun zardoblar va vaksinalar tashkil etadi va uning mazkur tarkibdagi ulushi eng ko'pi bilan 0,1 foizdan oshmaydi (4-jadval).

¹⁶ Мартемьянов Ю.Ф. Экспертные методы принятия решений: учеб. пособие / Ю.Ф. Мартемьянов, Т.Я. Лазарева. - Тамбов: Изд-во Тамб. гос. техн. ун-та, 2010. - 16 с.

¹⁷ Muallif hisob-kitoblari.

Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish tuzilmasidagi umumiy tarkibiy siljishlar “kosinus - koeffitsiyent” deb ataluvchi usul yordamida baholandi:

$$\cos(\overline{D^0}, \overline{D}) = \phi_t = \frac{d_1^0 d_1 + d_2^0 d_2 \dots + d_n^0 d_n}{(d_1^{02} + d_2^{02} \dots + d_n^{02})^{1/2} \cdot (d_1^2 + d_2^2 \dots + d_n^2)^{1/2}} \quad (13)$$

bunda: D^0 va D vektorlar orasidagi burchakning kosinusi bo‘lib, $\overline{D^0}, \overline{D} = \arccos(\phi_t)^{18}$.

4-jadval

Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish tarkibidagi o‘zgarishlar (jamiga nisbatan, foizda)¹⁹

Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish tuzilmasi	2015	2017	2019	2021	2023
Provitaminlar, vitaminlar va ularning hosilalari	4,8	0,8	0,7	2,8	0,7
Tarkibida gormonlar yoki antibiotiklar bo‘lmagan medikamentlar	93,3	98,2	98,8	95,7	98,6
Tarkibida kortikosteroid gormonlar bo‘lgan medikamentlar	0,0	0,4	0,4	0,6	0,3
Immunitet uchun zardoblar va vaksinalar	0,0	0,0	0,0	0,1	0,03
Boshqa diagnostika reagentlari va farmatsevtika preparatlari	1,8	0,6	0,1	0,9	0,37
Jami:	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

Kosinusning qiymatlari $0 \leq \cos \alpha \leq 1$ oraliqda bo‘lib, uning qiymati 1 ga yaqinlashgan sari, tuzilmaviy o‘zgarishlar darajasi yuqori hisoblanadi va aksincha, 0 ga yaqinlashsa, shunchalik tuzilmaviy o‘zgarishlar darajasi quyi bo‘ladi. Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish tuzilmasidagi umumiy tarkibiy siljishlar dinamikasi quyida keltirilgan rasmda o‘z aksini topgan (3-rasm).

Unga ko‘ra, barcha yillardagi tuzilmaviy o‘zgarishlarning umumiy ko‘rsatkichi 0,9 qiymatdan quyi emasligi va shuning uchun tarkibiy siljishlar darajasi yuqori ekanligi qayd etildi.

Tadqiqotda farmatsevtika sanoatining rivojlanishida demografiya va eksport omillarining ta’sirlari baholangan. Mamlakatdagi demografik holat farmatsevtika sanoatiga ichki va eksport esa kuchli ta’sir etuvchi tashqi omil hisoblanadi.

Olingan natijalar quyidagi regressiya tenglamasi bilan tavsiflanadi:

$$\hat{y}_x = -160.287 + 16.307 \ln x_1 - 0.196 \ln x_2 \quad (14)$$

(5.16) (0.53) (0.05)


bunda: \hat{y}_x - asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish hajmi; x_1 - respublika aholi soni hamda x_2 - eksport hajmi; aylana qavs ichidagi qiymatlar mos parametrlarning standart xatoliklari.

Olingan regression tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, hisoblangan determinatsiya koeffitsiyentining ($R^2 = 0.995$) qiymati 99,5 foizga teng bo‘lib,

¹⁸ Спасская О.В. Макроэкономические методы исследования и измерения структурных изменений: [Электрон ресурс] - режим доступа: <http://www.google.ru...> // С. 22-24.

¹⁹ Muallif hisob-kitoblari.

unga ko‘ra, ishlab chiqarish hajmi umumiy variatsiyasining 99,5 foizi ushbu omillar hisobiga shakllangan ekanligini ko‘rsatadi.



3-rasm. Farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish tuzilmasidagi umumiy tarkibiy siljishlar dinamikasi²⁰

Farmatsevtika sanoatida ishlab chiqarish omillari umumiy samaradorligining (*TFP*) o‘shishi, tarmoqda *R&D* (*Research and Development*) sektorining qay darajada rivojlanganligiga, bu esa uning o‘shish sur‘ati: ushbu sektor omillariga mablag‘ qo‘yish, ilmiy texnik salohiyatni rivojlantirishga xarajatlar ulushini ko‘paytirish va mazkur sektorda bandlikning o‘shishi (ψ_δ), texnologiyalar importi (μ_σ), xorijiy mutaxassislar taklifi hamda ilmiy salohiyatga (A) bevosita bog‘liq²¹:

$$g_{TFP} = \Delta A/A = \eta \cdot (\psi_\delta)^\gamma \cdot (\mu_\sigma)^{1-\gamma} \cdot A^\phi \quad (15)$$

bunda: φ - *R&D* sektoriga bilimlarni jamg‘arish ko‘lamidan qaytim; η - *R&D* sektorining samaradorlik parametri; γ - mavjud texnologiyalarni o‘zlashtirish parametri.

Tarmoqda yaratilgan ilmiy tadqiqot natijasi patent bilan belgilanadi. Patent (monopol huquq) aktiv bo‘lib, daromadlilik foiz stavkasiga tenglashtiriladi. Uning bahosi u kelgusida egasiga keltiradigan diskontlangan daromad oqimining yig‘indisi sifatida ifodalanadi va vaqt o‘tishi bilan patent bahosining o‘zgarishi quyidagiga teng bo‘ladi²²:

$$q = \pi_x \int_t^\infty e^{-\int_t^s r_v dv} ds; \quad (16)$$

$$\dot{q} = -\pi_x + r_t \pi_x \int_t^\infty e^{-\int_t^s r_v dv} ds = -\pi_x + r_t q \quad (17)$$

Bundan quyidagi tenglik kelib chiqadi:

$$r = (\pi + \dot{q})/q \quad (18)$$

Endi yuqoridagilardan farmatsevtika sanoati uchun quyidagi texnik taraqqiyot funksiyasini taklif etish mumkin bo‘ladi:

²⁰ Muallif hisob-kitoblari.

²¹ Чепель С.В. и др. Экономический рост и инновации: теория, практика и моделирование. Исследовательский проект. Институт прогнозирования и макроэкономических исследований. Т.: 2010.

²² Шараев Ю.В. Теория экономического роста. Издательский дом ГУ ВШЭ. Москва 2006. С. 123-124.

$$\Delta TFP_t / TFP_{t-1} = \Delta A / A = \eta \cdot (X_{Ph})^\alpha \cdot (I_{Ph})_m^\beta \cdot (L_{Ph})^\gamma \quad (19)$$

bunda: ΔTFP - omillar umumiy unumdorligining o'sish sur'ati (foiz); X_{Ph} - farmatsevtika sohasi $R\&D$ sektoriga mablag' qo'yish (mln. so'm); I_{Ph} - farmatsevtika sanoatiga jalb qilingan import texnologiyalar (mln. \$); L_{Ph} - farmatsevtika sanoati umumiy bandligida yuqori malakali kadrlarning ulushi (foiz); η - $R\&D$ sektorining samaradorlik parametri (kofef.); α, β, γ - elastiklik koeffitsiyentlari.

Dissertatsiya ishining to'rtinchi bobi "**Farmatsevtika sanoatining barqaror iqtisodiy rivojlanishini modellashtirish uslublaridan foydalanish amaliyotini takomillashtirish va ishlab chiqarish hajmini prognozlash**" deb nomlanib, bunda hududlarda farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishini mahalliyashtirish zonalarini shakllantirish va farmatsevtika sohasida qabul qilinishi lozim bo'lgan yangi iqtisodiy siyosat joriy etishning samaradorligini eksperimental baholash uslubiyotlari hamda farmatsevtika sanoati ishlab chiqarish hajmini prognozlash va prognoz natijalarining sifatini baholash kabi masalalar bayon etilgan.

Mamlakat farmatsevtika sanoati ishlab chiqarishining barqaror rivojlanishi hududlar ishlab chiqarishining rivojlanishiga bevosita bog'liqdir. Quyida biz hududlar farmatsevtika sanoati ishlab chiqarishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan uch masalani ko'rib chiqamiz:

I. Respublika hududlari farmatsevtika sanoatining umumiy rivojlanish indeksini (ω_i^t) ishlab chiqish va shu orqali hududlarni baholash.

II. Ishlab chiqilgan rivojlanish indeksi asosida $O = \{O_i, i = 1, 2, \dots, n\}$ hududlar to'plamini "quyi", "o'rta" va "yuqori" $\{S_1^u, S_2^u, S_3^u\}$ sinflarga ajratish.

III. Respublika hududlari farmatsevtika sanoatini quyi, o'rta va yuqori sinf rivojlanishlariga moyilliklarini aniqlash.

Yuqorida qo'yilgan uch vazifani amalga oshirish maqsadida quyidagi belgilanishlar hamda ko'rsatkichlarni qabul qilamiz:

$Z_{i,1}^t$ - hududlarda farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (mlrd.so'm); $Z_{i,2}^t$ - asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarishning hududiy ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi (foizda); $Z_{i,3}^t$ - respublika asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish hajmida hududlarning ulushi (foizda); $Z_{i,4}^t$ - hududlarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish hajmi (so'm); $Z_{i,5}^t$ - hududlarda dori vositalari ishlab chiqaruvchilar soni (birlik); $Z_{i,6}^t$ - hududlarda tibbiy texnika va tibbiy buyum ishlab chiqaruvchilar soni (birlik); $Z_{i,7}^t$ - hududlarda dori vositalari ishlab chiqaruvchilar sonining sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soniga nisbati (foizda).

Agar berilgan $Z_{i,j}^t$ indikatorlarni respublika hududlari bo'yicha qaraydigan bo'lsak, quyidagi matritsaga ega bo'lamiz²³:

²³ Салаев С.К. Кичик бизнес ривожланиш тенденцияларини моделлаштириш ва башоратлаш муаммолари: назария, услубиёт ва амалиёт. Монография. Тошкент.: "Фан", 2007. 241 - б.

$$Z^t = \begin{pmatrix} Z_{1,1}^t & Z_{1,2}^t & \dots & Z_{1,7}^t \\ Z_{2,1}^t & Z_{2,2}^t & \dots & Z_{2,7}^t \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ Z_{14,1}^t & Z_{14,2}^t & \dots & Z_{14,7}^t \end{pmatrix} \quad (20)$$

Bunda: $Z_{i,j}^t$ - t davrda i hudud farmatsevtika sanoati rivojlanishining j ko'rsatkichi; $i = 1,2,3,\dots,14$; $j = 1,2,3,\dots,7$.

Respublika hududlari farmatsevtika sanoatining umumiy rivojlanish indeksini (ω_i^t) hisoblash uch variantda amalga oshirilishi mumkin:

Birinchi variant – berilgan $Z_{i,j}^t$ indikatorlarning iqtisodiy mazmuni bir xil bo'lsa (ya'ni, ularning o'lchov birliklari bir xil va ularni qo'shish iqtisodiy mazmunga ega bo'lsa):

$$\omega_i^t = \frac{1}{7} \sum_{j=1}^7 Z_{i,j}^t \quad (21)$$

Ikkinchi variant – berilgan $Z_{i,j}^t$ indikatorlarning iqtisodiy mazmuni turli xil bo'lsa (ya'ni, ularning o'lchov birliklari turli xil va ularni qo'shish iqtisodiy mazmunga ega bo'lmasa):

$$\omega_i^t = \frac{\text{rang}(Z_{i,j}^t)}{7} \quad (22)$$

Bunda $\text{rang}(Z_{i,j}^t)$ - Z^t matritsa ustunlari bo'yicha ranglar tartib raqami.

Agar $1 \leq \frac{\text{rang}(Z_{i,j}^t)}{7} \leq 14$, $\frac{\text{rang}(Z_{i,j}^t)}{7} \rightarrow 1$ bo'lsa, rivojlanish darajasi yuqori.

Uchinchi variant – dastlab turli xil o'lchov birliklariga ega bo'lgan $Z_{i,j}^t$ indikatorlarni bir xil asosga keltirish maqsadida Z^t matritsaning ustunlari bo'yicha har bir elementni quyidagicha standartlashtiramiz:

$$\Omega_{i,j}^t = \frac{Z_{i,j}^t - \bar{Z}_j}{\sigma_j} \quad (23)$$

Standartlashtirishda o'lchov birliklar mavhumlashadi, shundan so'ng, hududlar bo'yicha farmatsevtika sanoatining umumiy rivojlanish indeksini (ω_i^t) quyidagicha hisoblash mumkin bo'ladi:

$$\omega_i^t = \frac{1}{7} \sum_{j=1}^7 \Omega_{i,j}^t \quad (24)$$

Navbatdagi bosqichda, ω_i^t “umumiy rivojlanish indeksi”ni saflab, ya'ni ranjirlab olamiz:

$$\omega_{i_1}^t \leq \omega_{i_2}^t \leq \omega_{i_3}^t \leq \dots \leq \omega_{i_{14}}^t$$

Shundan so'ng, “umumiy rivojlanish indeksi”ning barcha mumkin bo'lgan o'zgarishlar diapazonini 3 ta intervalga ajratamiz²⁴:


$$\left[\left[\omega_{i_1}^t; \omega_{i_1}^t + \frac{\omega_{i_{14}}^t - \omega_{i_1}^t}{3} \right]; \left[\omega_{i_1}^t + \frac{\omega_{i_{14}}^t - \omega_{i_1}^t}{3}; \omega_{i_1}^t + \frac{2}{3}(\omega_{i_{14}}^t - \omega_{i_1}^t) \right] \right), \quad (25)$$

$$\left[\omega_{i_1}^t + \frac{2}{3}(\omega_{i_{14}}^t - \omega_{i_1}^t); \omega_{i_{14}}^t \right].$$

²⁴ Хачатрян С.Р., Королева Н.В. Моделирование взаимодействий малого бизнеса: макро - и микроэкономический структурный анализ, классификация и оптимизация. Аудит и финансовый анализ. 2'2002. С. 184-199.

Agar, $i_l = \max_i \arg \omega_i^t$ bo'lsa, u holda $\omega_i^t \in \left[\omega_{i_1}^t, \omega_{i_1}^t + \frac{\omega_{i_{14}}^t - \omega_{i_1}^t}{3} \right)$, $\omega_{i_{l+1}}^t \notin \left[\omega_{i_1}^t, \omega_{i_1}^t + \frac{\omega_{i_{14}}^t - \omega_{i_1}^t}{3} \right)$ bo'ladi. Bundan, $S_1^u = \{i_1, i_2, \dots, i_l\}$ ekanligi kelib chiqadi. Agar, $i_0 = \max_i \arg \omega_i^t$ bo'lsa, u holda $\omega_{i_q}^t \in \left[\omega_{i_1}^t + \frac{\omega_{i_{14}}^t - \omega_{i_1}^t}{3}; \omega_{i_1}^t + \frac{2}{3}(\omega_{i_{14}}^t - \omega_{i_1}^t) \right)$ bo'ladi, ya'ni $\omega_{i_{q+1}}^t \notin \left[\omega_{i_1}^t + \frac{\omega_{i_{14}}^t - \omega_{i_1}^t}{3}; \omega_{i_1}^t + \frac{2}{3}(\omega_{i_{14}}^t - \omega_{i_1}^t) \right)$.

Bundan esa $S_2^u = \{i_{l+1}, \dots, i_q\}$ ekanligi kelib chiqadi. Yuqoridagi sinflarga ajratishdan so'ng, avtomatik ravishda S_3^u ning $S_3^u = \{i_{q+1}, \dots, i_n\}$ ga teng ekanligi ma'lum bo'ladi. Yuqoridagi uslubiyot asosida respublika hududlari farmatsevtika sanoatining umumiy rivojlanish indeksi (ω_i^t) ishlab chiqildi. Unga ko'ra, mazkur ko'rsatkich bo'yicha eng yuqori qiymatlar Toshkent shahri (12.0), Sirdaryo (10.7) va Toshkent (10.1) viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi (4-rasm).



4-rasm. Respublika hududlari farmatsevtika sanoatining umumiy rivojlanish indeksi ($\omega_i^t - 2023$)²⁵

Hisob-kitoblarga ko'ra, farmatsevtika sanoatining rivojlanish indeksi eng quyi bo'lgan hududlarga Jizzax (1,3), Qoraqalpog'iston Respublikasi (2,6), Qashqadaryo va Navoiy viloyatlari (3,4) kiradi.

Farmatsevtika sanoatining rivojlanish indeksi bo'yicha "quyi" (Jizzax, Qoraqalpog'iston, Qashqadaryo va Navoiy viloyatlari) va "yuqori" (Namangan, Toshkent, Sirdaryo va Toshkent shahri) tarkibga kiruvchi hududlar sonining jamiga nisbatan ulushlari mos ravishda 28,6 foizni, "o'rta" (Xorazm, Buxoro, Farg'ona, Suxondaryo, Samarqand va Andijon viloyatlari) tarkibga kiruvchi hududlar sonining ulushi esa, 42,9 foizni tashkil etadi.

Tadqiqotda muallif tomonidan ishlab chiqilgan tanlov variantlari, tanlovni tasodifiylashtirish farazlari hamda shakllantirilgan tadqiqot gipotezasi asosida farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalari tanlab olingan va

²⁵ Muallif hisob-kitoblari.

ular tajriba hamda nazorat guruhlariga ajratilgan. Tanlab olingan korxonalarda Zarur ishlab chiqarish amaliyotini (*GMP* standarti) joriy etish samaradorligi eksperiment usulda baholangan. Ushbu amaliyotning joriy etilishi farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarining eksport hajmiga qanday ta'sir etishi mumkinligi aniqlangan.

Standartni joriy etish natijasida eksport hajmida ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan bo'lsa, u holda tajriba guruhidagi ishlab chiqaruvchilarning o'rtacha eksport hajmi nazorat guruhidagi ishlab chiqaruvchilarning o'rtacha eksport hajmiga nisbatan yuqori bo'lishi mumkin. Buning uchun "standartni joriy etish eksport hajmining ortishiga olib keladi" mazmundagi gipotezani tekshirib ko'rish talab etiladi:

$H_0: a_x = a_y$ (guruhlardagi korxonalar eksport hajmining o'rtachalari teng).

$H_1: a_x > a_y$ (tajriba guruhidagi korxonalar eksport hajmining o'rtachasi nazorat guruhidan yuqori).

O'zaro mustaqil (o'zaro bog'liq bo'lmagan) ikkita tanlanmaning o'rtachalari tengligi haqidagi nolinch gipotezani (H_0) tekshirish maqsadida Styudentning quyidagi t - mezonidan foydalanish o'rinlidir:

$$t_{emp} = \frac{\bar{X}_1 - \bar{X}_2}{\sqrt{\frac{\sigma_1^2}{n_1} + \frac{\sigma_2^2}{n_2}}} \quad (26)$$

Bunda: n_1 va n_2 - mos ravishda birinchi (tajriba) va ikkinchi (nazorat) tanlanmalar hajmi; $n_1, n_2 \geq 30$. Agar $|t_{emp}| > t_{kr}(\alpha = 0,05; \nu)$ bo'lsa, u holda nolinch gipoteza rad etiladi va muqobil gipoteza qabul qilinadi, agar $|t_{emp}| < t_{kr}(\alpha = 0,05; \nu)$ bo'lsa, u holda o'rtachalar orasidagi farq ishonchsizdir. Agar nolinch gipoteza (H_0) o'rinli bo'lsa, standartni joriy etish eksport hajmining ortishiga ta'sir etmaydi. Agar muqobil gipoteza (H_1) o'rinli bo'lsa, nolinch gipoteza rad etiladi. Tajriba guruhiga kirgan korxonalar eksport hajmida haqiqatdan ham ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan bo'lsa, u holda mazkur o'zgarishning tasodifiy emasligini, bunday farq standartni joriy etish hisobiga sodir bo'lganligini isbotlash lozim. Buning uchun, ikkita tanlanma (tajriba va nazorat) taqsimot qonunlarining tengligi haqidagi quyidagi gipotezani tekshirib ko'rish o'rinlidir: $H_0: F_x = F_y$ (ikkala guruhda eksport hajmi bo'yicha taqsimot qonuniyati bir xil). $H_1: F_x \neq F_y$ (ikkala guruhda eksport hajmi bo'yicha taqsimot qonuniyati har xil).

Agar nolinch gipoteza (N_0) rad etilib, uning o'rniga muqobil gipoteza (N_1) qabul qilinadigan bo'lsa, u holda tajriba guruhiga kirgan korxonalar eksport hajmining o'sishi tasodif emas, balki u standartni joriy etish hisobidan yuzaga kelgan. Mazkur gipotezani tekshirib ko'rish uchun Pirsonning quyidagi χ^2 - mezonidan foydalanamiz²⁶:

$$\chi_{emp}^2 = \frac{1}{N \cdot M} \sum_{i=1}^k \frac{(N \cdot x_i - M \cdot y_i)^2}{x_i + y_i} \quad (27)$$

²⁶ Ахметжанова Г.В., Антонова И.В. Применение методов математической статистики в психолого-педагогических исследованиях. Электронное учебное пособие. - Тольятти: Изд-во ТГУ, 2016. - С. 46-47.

Bunda: N va M - mos ravishda tajriba va nazorat guruhidagi unsurlar soni. Pirsonning χ^2 (xi-kvadrat) mezon uchun erkinlik darajasi $\nu = k - 1$.

Agar $\chi_{emp}^2 < \chi_{kr}^2$ bo'lsa, u holda taqsimotlar orasidagi tafovut statistik jihatdan ishonchsizdir, aks holat ishonchlilikni tavsiflaydi. Olingan barcha hisob-kitoblar quyidagi jadvalda o'z aksini topgan (5-jadval).

5-jadval

Tajribadan oldingi va keyingi tanlanmalar bo'yicha olingan matematik-statistik hisob-kitob natijalari²⁷

Tanlanmalar	Dispersiya	O'rtacha kvadratik chetlanish	Variatsiya koeffitsiyenti	Samaradorlik koeffitsiyenti (η)
Tajribadan oldin				
Tajriba guruhi	341777168.1	18487.2	35.6	0.963
Nazorat guruhi	355764705.9	18861.7	34.9	
Tajribadan keyin				
Tajriba guruhi	496875476.3	22290.7	39.0	1.082
Nazorat guruhi	453204152.3	21288.6	40.3	

Hisob-kitob natijalari mazkur mezonning qiymati 278.9 ga hamda $\alpha = 0,05$ ehtimollik va $\nu = 3$ qiymat bilan uning kritik qiymati 7.82 ga teng ekanligi kelib chiqadi. Bundan hisoblangan qiymat (278.9) kritik qiymatdan (7.82) katta bo'lganligi uchun, taqsimotlar orasidagi tafovut statistik jihatdan ishonchli ekanligi kelib chiqadi. Demak, $\chi_{emp}^2 > \chi_{kr}^2$ bo'lgani uchun tadqiqotda keltirilgan uchinchi gipoteza ($H_0: F_x = F_y$) rad etiladi. Unga ko'ra, standartning joriy etilishi hisobiga tanlanmalarning tegishli taqsimotlarida o'zgarish sezilib, bundan taqsimotlarning turlicha bo'lishi kelib chiqadi. Olingan natijalar nazorat guruhining natijalari bilan taqqoslangan. Tadqiqotda natijalari GMP standartini (Zarur ishlab chiqarish amaliyoti) joriy etish, farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar eksport hajmining ortganligini tasdiqlaydi.

Tarmoq mahsulotlariga bo'lgan talab hajmining shakllanish dinamikasidan kelib chiqqan holda asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish hajmini 2030-yilgacha bo'lgan maqsadli prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqildi va bunda quyidagi parabolik o'rtacha o'sish sur'atini hisoblash formulasidan foydalanildi²⁸:

$$\bar{K}_{parabolik} = 1 + \frac{-3}{2(m-1)} + \sqrt{\frac{9}{4(m-1)^2} + \frac{6}{m(m^2-1)} \left(\frac{\sum_{i=1}^m y_i}{y_k} - m \right)} \quad (28)$$

Bunda: m - qo'shiladigan darajalar soni; y_k - bazis (zaminiiy) daraja.

Mazkur formula asosida asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish hajmini istiqbolda (2030-yilda) 2023-yilga nisbatan taxminan 10 barobarga oshirish masalasi ko'rib chiqildi (6-jadval).

²⁷ Muallif hisob-kitoblari.

²⁸ Казинец Л.С. Темпы роста и абсолютные приросты (измерение и анализ). М.: Статистика, 1975 г. С. 183-187.

6-jadval

Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish hajmining 2030-yilgacha bo'lgan prognoz parametrlari²⁹

Parametrlar	2025	2026	2027	2028	2029	2030
Mahsulot ishlab chiqarishning o'rtacha yillik o'sish sur'ati (foizda)	1,19	1,30	1,41	1,54	1,68	1,83
Farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining istiqboldagi maqsadli prognoz ko'rsatkichlari (mlrd.so'm)	4758,9	5187,2	5654,1	6163,0	6717,6	7322,2

Olingan hisob-kitob natijalari shuni ko'rsatadiki, 2030-yilda 2023-yilga nisbatan jamg'arib boriladigan mahsulot ishlab chiqarish hajmini taxminan 10 barobarga oshirish uchun tarmoq ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari jadvalda ko'rsatilgan tegishli foizlardan quyi bo'lmasligi lozim.

Demak, tarmoq ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari keltirilgan jadvalda ko'rsatilgan tegishli foizlardan quyi bo'lmasa, u holda 7 yil davomida **jamg'arib boriladigan ishlab chiqarish hajmi** 2030-yilga borib taxminan 40048.9 mlrd. so'mni tashkil etadi.

XULOSA

1. Farmatsevtika sanoati davlat tomonidan qat'iy darajada tartibga solinuvchi va nazorat qilinuvchi, ijtimoiy xarakterga ega va innovatsiya sig'imi yuqori bo'lgan tarmoq hisoblanadi. Uning rivojlanishi birinchi navbatda sog'liqni saqlash, ilmiy-tadqiqot, fan-ta'lim, biznes, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi, kimyo sanoati va boshqa shu kabi tarmoqlarning rivojlanishini rag'batlantirib turadi. Farmatsevtika sanoati ko'plab rivojlangan mamlakatlarda o'sish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishning asosiy "drayveri" hisoblanadi.

2. Bugungi kunda jahon farmatsevtika sanoati murakkab komponentli farmatsevtik mahsulotlarni ishlab chiqarish, unda sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasining yuqoriligi, ishlab chiqarishda Pharma 4.0 konsepsiyasining ustuvor ahamiyat kasb etib borayotganligi bilan xarakterlanadi. Farmatsevtika sanoatini rivojlantirish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi (AQSh, Xitoy, Hindiston, Rossiya hamda Shveysariya) tarmoqni malakali kadrlar bilan ta'minlash, ishlab chiqarishni rag'batlantirish, soliqlar orqali qo'llab-quvvatlash, infratuzilmani takomillashtirish, farmatsevtika yo'nalishi bo'yicha ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini qo'llab-quvvatlash, patent qonunchiligini yaxshilash kabilar bilan tavsiflanadi.

3. Hozirda respublika farmatsevtika siyosatida ishlab chiqarishni

²⁹ Muallif hisob-kitoblari.

mahalliyashtirish, farmatsevtika sohasiga ixtisoslashgan EIHlar va klasterlarni tashkil etish, ilg'or standartlarni joriy etish, yuqori komponentli dori vositalarini ishlab chiqarishni o'zlashtirish kabi masalalar ustuvor ahamiyat kasb etib bormoqda. Bugungi kunda milliy farmatsevtika sanoatini rivojlantirishda institutsional omillar, yetarli qonunchilik bazasi, davlat dasturlari va ulardagi turli imtiyozlar, tarmoqning sarmoyaviy imkoniyatlari va jozibadorligi, aholining o'sib borishi hisobiga dori vositalariga bo'lgan talabning muttasil ortib borayotganligi, mamlakatdagi boy tabiiy va qishloq xo'jaligi xomashyosi kabi omillar muhim o'rin tutmoqda.

4. Tadqiqotda "farmatsevtika sanoatining barqaror iqtisodiy rivojlanishi" tushunchasiga nisbatan uch xil yondashilgan bo'lib, bular iqtisodiy tizim sifatida farmatsevtika sanoatining barqaror rivojlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tarmoqning barqaror rivojlanishi hamda epidemiologik, ekologik va tibbiy omillarning ta'sirlari nuqtayi nazaridan tarmoqning barqaror rivojlanishidan iborat.

5. Farmatsevtika sanoatini barqaror iqtisodiy rivojlantirish masalasi tizimli xarakterga ega (mazkur xulosa farmatsevtika sanoatiga berilgan ta'rifdan kelib chiqadi) bo'lganligi bois, tadqiqotda "tizimli paradigma" yondashuvi qo'llanildi. Mazkur yondashuvga muvofiq, farmatsevtika sanoatining tizim sifatidagi barqarorligini ta'minlash va uzoq muddatli rivojlanishini saqlab turish uchun eng birinchi navbatda uning muhit tizimiga kiruvchi unsurlarni (rivojlanishga xizmat qiluvchi investitsiya muhiti, biznes va ishbilarmonlik muhitlari, savdo tizimlari, tashqi savdo shartlari, aloqa va kommunikatsiya vositalari, normativ-huquqiy baza va qonunchilik, institutlar, narx muhiti) rivojlantirish va yaxshilash talab etiladi. Ikkinchidan, obyekt tizimi tarkibiga kiruvchi unsurlarning (ishlab chiqarish omillari va infratuzilmasi, resurslar, korxonalar, klaster, hududlar ishlab chiqarishi) kuchiga tayanib tarmoqdagi barqarorlikni uzoq muddatda saqlab qolish imkoniyati mavjud.

6. Tarmoqni barqaror rivojlantirishning eng muhim masalasi bu – birinchi navbatda tarmoqda mavjud bo'lgan muammolarni bartaraf etishga yetarlicha e'tibor qaratishdan iborat. Bugungi kunda mamlakatimiz hududlarining aksariyatida mazkur tarmoqning ulushi juda past bo'lib, ikkinchi tomondan ushbu tarmoqning rivojlanishida hududlarning ulushi notekis taqsimlangan. Ishlab chiqarishning hududiy konsentratsiya darajasiga ko'ra, 2016-yilda respublika farmatsevtika sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida 3 ta hududning ulushi 87,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib ushbu ko'rsatkich qaralayotgan hududlar bo'yicha 81,8 foizni tashkil etgani holda konsentratsiyalashuv darajasi 5,5 foizga pasaygan. Bu esa ushbu tarkibda qolgan hududlar ulushining qisman ortganligi bilan izohlanadi. Ishlab chiqarishda bu kabi "hududiy muvozanatsizlik"ni viloyatlarning tumanlarida ham keskin kuzatish mumkin.

7. Mamlakat farmatsevtika bozori hajmi 2 milliard dollarga yetdi. Lekin, bu bozorda mahalliy mahsulotlar ulushi fizik hajmda 40-45 foiz bo'lsa-da, pul qiymatida 20 foizdan oshmaydi. Shuning uchun ham YaIMda asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish hajmining ulushi atigi 0,34 foizni (2023-yil) tashkil etadi. O'rganishlarga ko'ra, aholining mahalliy mahsulotlar

sifatiga bo'lgan ishonchi nisbatan past. Bu esa ushbu tarmoqni rivojlantirish yo'lidagi eng katta to'siq sanaladi. O'z navbatida import hajmi eksportga nisbatan bir necha barobar yuqori hisoblanadi.

8. Mamlakatda importga bo'lgan yuqori darajadagi bog'liqlikni keskin pasaytirish lozim. Ayniqsa, bu masala hozirgi kunda juda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Buning uchun asl dori vositalarini o'zimizda ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Biroq, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, asl dori vositalarini yaratish uchun o'rtacha 10-15 yil muddat talab etiladi. Bu esa katta risk va katta mablag' hisoblanadi. Shuning uchun, dunyo miqyosidagi yirik farmkompaniyalarni mamlakatimizga jalb etish maqsadga muvofiqdir. Biroq, bu ham murakkab masala bo'lib, bunday yirik kompaniyalar milliy bozoriga yetarlicha e'tibor qaratmaydilar. Chunki, endigina 38 millionga yaqinlashgan mamlakatimiz ular uchun juda katta tashqi bozor hisoblanmaydi. Faqatgina biz, yuqori darajadagi imtiyozlarni qo'llab turib ularni qisman o'zimizga jalb etishimiz mumkin bo'ladi.

9. Farmatsevtika sanoatini barqaror rivojlantirishning eng muhim yo'nalishi bu – ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish masalasidir. Chunki, farmatsevtika sanoati faqatgina ishlab chiqarish emas, balki u ilmiy tadqiqot yo'nalishi hamdir. Bu borada hududlarning ilmiy salohiyatidan samarali foydalanib, farmatsevtik tadqiqotlarni kuchaytirish lozim. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarni rivojlantirishda quyidagi masalalarga yetarlicha e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

kasalliklarni tashxislash va tadqiq etishda inson organizmini to'liq o'rganish imkoniyatini bera oladigan sun'iy intellekt va nanotexnologiyalardan foydalanish masalalarini jadallashtirish lozim;

dori vositalarining tarkibi va kasalliklarning o'ziga xos xususiyatiga mos keluvchi kimyoviy birikmalar va dori preparatlarini yaratishni takomillashtirish. Buning uchun ham sun'iy intellekt va nanotexnologiya imkoniyatlaridan samarali foydalanish, ishlab chiqarishda Pharma 4.0 konsepsiyasini qo'llashga faol ravishda o'tish lozim;

farmatsevtika sohasidagi tadqiqotlarning navbatdagi yo'nalishi bu – keyingi davrlarda inson hayoti va salomatligini yuqori xavf ostiga qo'yib kelayotgan viruslarni tadqiq etishni kuchaytirish va noyob vaksinalar ishlab chiqarishni ko'paytirish lozim. Buning uchun Hukumat darajasidagi qaror loyihasini ishlab chiqish va bu boradagi kadrlarni tayyorlash masalasiga yetarlicha e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.01.2021.I.16.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ХОМИДОВ СОХИБМАЛИК ОЛИМОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ МОДЕЛИРОВАНИЯ И
ПРОГНОЗИРОВАНИЯ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО
РАЗВИТИЯ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

08.00.06 – Эконометрика и статистика

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора экономических наук (DSc)

Ташкент – 2025

Тема докторской диссертации (DSc) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией B2020.2.DSc/Iqt231.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском и английском (резюме)) размещён на веб-сайте Научного совета (www.tsue.uz) и информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный консультант: **Махмудов Носир Махмудович**
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Беркинов Базарбай Беркинович**
доктор экономических наук, профессор

Хатамов Очилди Курбонович
доктор экономических наук, профессор

Сауханов Жанибек Казиевич
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация: **Ферганский государственный технический университет**

Защита диссертации состоится «___» _____ 2025 г. в _____ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.01.2021.I.16.03 при Ташкентском государственном экономическом университете Адрес: 100066, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-01-49; факс: (99871) 232-69-92; e-mail: info@tsue.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (регистрационный номер _____). Адрес: 100066, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-01-49; факс: (99871) 232-69-92.

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2025 г.
(реестр протокола рассылки № _____ от «___» _____ 2025 г.).

С.К. Худойкулов

Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней,
д.э.н., профессор

Б.Э. Мамарахимов

Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней,
к.э.н., профессор

У.В. Гафуров

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации)

Актуальность и востребованность темы диссертации. Обострение различных экологических, эпидемиологических, техногенных и социально-экономических ситуаций, происходящих в мире, представляет серьезную угрозу здоровью человека и становится причиной возникновения различных заболеваний. В результате во всем мире с каждым годом продолжается неуклонный рост спроса на качественные медицинские услуги и высокоэффективные лекарственные средства. На мировом фармацевтическом рынке и фармацевтической промышленности наблюдаются различные изменения и тенденции, связанные с этими факторами. Согласно анализу, за последние годы на мировом фармацевтическом рынке наблюдается значительный рост. По данным статистики, «к 2023 году общая стоимость глобального фармацевтического рынка достигла 1,6 трлн долларов США. Это на 100 млрд долларов больше, чем в 2022 году»³⁰. Это обуславливает актуальное значение совершенствования методологии моделирования и прогнозирования устойчивого экономического развития фармацевтической промышленности в мире.

В условиях усиления глобальных интеграционных процессов в мире проводятся многочисленные исследования по моделированию и прогнозированию устойчивого экономического развития фармацевтической промышленности. Использование цифровых технологий и искусственного интеллекта в отрасли, формирование инновационных экосистем фармацевтического производства, разработка эконометрических и многокритериальных моделей, оптимизирующих эффективное использование отраслевых ресурсов, прогнозирование сбалансированности спроса и предложения с учетом глобальных тенденций здравоохранения, проведение динамических сценарных анализов, оценивающих финансовую устойчивость и инвестиционную привлекательность отрасли, производство комбинированных и безопасных лекарственных средств, повышение инновационного потенциала отрасли, эффективное использование возможностей искусственного интеллекта и нанотехнологий в цифровизации производства и развитии фармацевтической промышленности, активное применение концепции «Фарма 4.0» в производстве относятся к приоритетным направлениям научных исследований, направленных на совершенствование методологии моделирования и прогнозирования устойчивого экономического развития фармацевтической промышленности.

В Республике Узбекистан, как и в других странах, развитие фармацевтической промышленности приобретает все большее значение. Полное удовлетворение потребностей населения в высокоэффективных лекарственных средствах напрямую зависит от уровня развития этой отрасли. В настоящее время приоритетными направлениями

³⁰ <https://www.statista.com/statistics/263102/pharmaceutical-market-worldwide-revenue-since-2001/> (11.03.2024).

фармацевтической политики нашей республики являются создание свободных экономических зон и кластеров, внедрение передовых стандартов (GMP, GDP, GPP, GSP и т.д.), повышение уровня локализации, поддержка инвестиционных проектов в отрасли. Сегодня перед нашей республикой поставлены такие цели, как «дальнейшее улучшение обеспечения населения качественной, эффективной и безопасной фармацевтической продукцией, увеличение объема производства в фармацевтической отрасли в 3 раза и повышение уровня обеспеченности внутреннего рынка в натуральном выражении до 80 процентов за счет внедрения передовых научно-технических достижений и инноваций в данную отрасль»³¹. Это требует проведения глубокого анализа потенциала и возможностей развития фармацевтической промышленности республики, количественного исследования факторов, влияющих на ее устойчивое развитие, и разработки научных предложений и практических рекомендаций на этой основе. Исходя из этого, проведение глубоких исследований в этой области, широкое и эффективное использование при этом возможностей экономико-математических методов в настоящее время имеет актуальное научно-практическое значение.

Данная диссертационная работа в определенной мере служит реализации задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан от 23 января 2024 года № УП-20 «О дополнительных мерах по регулированию фармацевтической отрасли», от 21 июля 2023 года № УП-111 «О мерах по эффективной организации государственного управления в сфере инвестиций, промышленности и торговли в рамках административных реформ», от 11 сентября 2023 года № УП-158 «О Стратегии «Узбекистан-2030», от 21 января 2022 года № УП-55 «О дополнительных мерах по ускоренному развитию фармацевтической отрасли республики в 2022-2026 годах», от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», постановлении Президента Республики Узбекистан от 10 января 2024 года № ПП-14 «О дополнительных мерах по дальнейшему развитию фармацевтической отрасли и ускорению реализации инвестиционных проектов».

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное научное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации³².

³¹Указ Президента Республики Узбекистан от 21 января 2022 года № УП-55 «О дополнительных мерах по ускоренному развитию фармацевтической отрасли республики в 2022-2026 годах». <https://lex.uz/docs/5834287>. Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан.

³² Фармацевтическая промышленность и глобальное здравоохранение: факты и цифры. AIPM & IFPMA. - М.: 2012. - 191 с.; The Pharmaceutical Industry and Global Health. Facts and Figures 2021. IFPMA. Switzerland. - 102 p.; Boosting Pharmaceutical Production. 2019. UNIDO. Austria. - 11 p.; Frank R. Lichtenberg. Pharmaceutical Innovation Mortality Reduction and Economic Growth. Working Paper 6569. NBER. Cambridge. 1998. - 30 p.; Dennis Ostwald et cet. The Global Economic Impact of the Pharmaceutical Industry. Berlin. 2020. - 18 p.; Mehdi

